

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA JAHON ADABIYOTI NAMUNALARINI O‘QITISHNING HOZIRGI HOLATI

Abdurahmonova Sharofat Baxromali qizi

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

+99890 402 55 42 // abdurahmonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon adabiyoti durdonalarining umumta’lim maktablarida o‘qitilish holati va unga qo‘yilgan talablar xususida so‘z boradi. Yangi yaratilgan darsliklarda aks etgan o‘ziga xos jihatlar tahlilga tortilib, bugungi kundagi ahamiyati borasida tegishli xulosalar beriladi. Yangi kiritilgan dunyo adiblarining o‘qitilishida dolzarblik masalasi tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tendensiya, atama, tahlil, tadqiq, talqin, yondashuv, metod, uslub, aspekt, nazariya, tajriba, amaliyot.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ОБРАЗЦОВ МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В СРЕДНИХ ШКОЛАХ.

Аннотация: В статье рассматривается состояние преподавания образцов мировой литературы в средних школах и требования, предъявляемые к нему. Анализируются конкретные аспекты, отраженные в новых учебниках, и делаются соответствующие выводы относительно их актуальности на сегодняшний день. Исследуется вопрос релевантности преподавания произведений недавно представленных мировых писателей.

Ключевые слова: образование, тенденция, термин, анализ, исследование, интерпретация, подход, метод, стиль, аспект, теория, опыт, практика.

THE CURRENT STATE OF TEACHING EXAMPLES OF WORLD LITERATURE IN SECONDARY SCHOOLS.

Annotation: This article discusses the current state of teaching of world literature in secondary schools and the requirements for it. The specific aspects reflected in the newly created textbooks are analyzed, and relevant conclusions are drawn about their relevance today. The issue of relevance in teaching newly introduced world writers is studied.

Keywords: education, tendency, term, analysis, research, interpretation, approach, method, style, aspect, theory, experience, practice.

Kirish. Yangilangan pedagogika ilmi bugungi zamonaviylashtirilgan maktab ta’limi tizimi oldiga eng avvalo, yoshlarni ma’naviy va axloqiy jihatdan barkamol, estetik didi yuksak, ijtimoiy-madaniy hayotda o‘z so‘zi va fikriga ega mustaqil shaxs sifatida tarbiyalashni eng ustuvor vazifalardan biri qilib qo‘ymoqda: “Ta’lim-tarbiya jarayoni o‘quvchilar uchun hayotga tayyorgarlik bosqichi emas, balki hayotning o‘zi bo‘lish kerak. O‘quvchi yangi pedagogik tafakkur talabiga ko‘ra maktabda hayotga o‘rgatilishi emas, balki haqiqiy hayotda chinakamiga yashamog‘i lozim. Buning uchun asosiy e’tibor bolalarga o‘rgatilajak bilimlar majmuiga emas, balki uning shaxsiga xos jihatlarni takomillashtirishga qaratilishi kerak bo‘ladi”. Barcha xalqlar ta’lim-tarbiya tizimida yoshlarni bilimli qilib tarbiyalashdan ko‘ra ularni ijtimoiy hayotning o‘ziga tayyorlash, uning uchun esa umumta’lim maskanlari ijtimoiy muloqotning dastlabki bosqichi o‘laroq amaliyot vazifasini o‘tamog‘i lozimligi borasidagi qarashlar yetakchilik qiladi: “Ta’limning maqsadi ayrim qobiliyatlar va samaralarni rivojlantirish emas, balki hayotimizga ma’no baxsh etishga ko‘maklashishdir, o‘tmishni idrok etish-u, kelajakni qarshi olishga mardona tayyorlanishga yordam berishdir. Ana shu ta’limga olib boradiganlar ichida eng muhimi – jahon adabiyotini o‘rganishdir, ko‘pgina xalqlarning yozuvchilari va mutafakkirlari asarlari ichida bizga o‘tmishdan tuhfa bo‘lib qolgan fikrlar, hikmatlar, tajriba, ramzlar, xayollar va a’mollarning hududsiz xazinasini izchillik bilan bobma-bob o‘zlashtirishdir”.

Tadqiqot metodologiyasi. So‘nggi yillarda yurtimizda ta’lim sifati va shart-sharoitlarni takomillashtirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, bu jahon adabiyoti namunalarining yangilanish holatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu xususta O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-qarori ham adabiyotga bo‘lgan katta e’tiborning hosilasi deyish mumkin. Milliy adabiyot bilan birgalikda jahonning sara namunalarini o‘zaro bog‘liqlik va parallel tarzda o‘rganish bolalarda hozirgi zamon badiiy kashfiyotlarining eng so‘nggi durdonalaridan avvalgi boxabarlardan qilibgina qolmay, balki qardosh va o‘zga millat adabiyoti va san’atiga nisbatan o‘zaro bag‘rikenglik, baynalminallik va tolerantlik ruhida shakllanishiga zamin yaratdi.

Umumta’lim maktablari uchun yaratilgan so‘nggi dasrliklar, avvalo, yangidan yangi ijodkorlar va ular yaratgan badiiy ijod namunalarining adabiyot darsliklari sahifalaridan o‘rin olganligi bilan izohlanadi. Bu esa o‘z navbatida fan o‘qituvchilari oldiga fanga doir ma’lum chora-tadbirlarni ko‘rish, ilmiy-ijodiy izlanish, eng asosiysi, darslikka kiritilgan va mustaqil o‘qish uchun topshirilgan jahon adabiyoti namoyondalari va ular yaratgan mashhur asarlar, adabiy jarayondagi ijodiy muhit, yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodi, uslubi haqida adabiyotshunos olimlarning tadqiqot ishlari va so‘nggi yillarda chiqqan adabiy nashrlardagi ilmiy maqolalari hamda ijodiy bahslarni kuzatib borishni ko‘zda tutadi.

Tahlil va natijalar. 2017-2020-yillarda yaratilgan darsliklarda quyidagi tamoyillar yetakchilik qilishini ko‘rish mumkin.

1. O‘quvchilarning yosh xususiyati e‘tiborga olinishi. Bunda dastlab o‘quvchilarga adabiy janrlarning nisbatan sodda, kichik turlari – ertak, masal, topishmoq, doston, hikoya, kichik she‘rlar kabi adabiy janrlarga oid badiiy asarlar taqdim etiladi. Sinflar yuqorilashgani sayin adabiy turlarning nisbatan murakkab turlari – drama, qissa, roman, katta lirik dostonlar beriladi. Bunda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyati hamda qiziqishlariga mos ravishda badiiy asarlar tanlanadi.

2. Davrlashtirishning o‘sib borish ketma-ketligi tamoyili. Bu tamoyil har bir sinf dasrligida ruknlarga bo‘lingan holda dastlab, og‘zaki ijod, so‘ng qadimgi turkiy adabiyot, mumtoz adabiyot, yangi adabiyot va so‘ngra jahon adabiyoti alohida ruknda beriladi. Ya‘ni adabiyot o‘tmishni bosqichli ko‘rinishda bolalarga taqdim etadi.

3. Konseptual tamoyil. Bunda umumta‘lim maktablarining sinflashtirish bosqichida uzviylikni ta‘minlash yetakchilik qiladi, ya‘ni biror bir muallifning o‘ziga xos adabiy uslubi, g‘oyaviy xususiyati, asarlarinign soddadan murakkabga o‘tib borish jihatiga e‘tibor qilinadi. Masalan, Chingiz Aytmatovning bolalarga dastlab, mos ravishda “Oq kema” asari o‘qitiladi, ijodkor ijodiy faoliyatiga ma‘lumotlar ham ushbu tamyil asosida ixcham holda taqdim etiladi, yuqori sinfga o‘tgach muallifning “Asrga tatigulik kun” romani va keyinchalik ko‘plab bahslarga sabab bo‘lgan “Jamila” qissasi o‘qitilishi konseptual tamoyilning asosini yoritib beradi.

4. Asarga qo‘yilgan didaktik maqsadning aks etganligi tamoyili. Bu tamoyilda o‘quvchilarga tanlangan asarning badiiy niyati, didaktik maqsadi va mavzular turfaligi inobatga olinadi. Xususan, 5-7-sinflarda bolalarga didaktik ruhdagi asarlar berilib, tarbiyaviy ahamiyati yetakchilik qiladi. Masalan, ertaklarda qahramonlik, do‘stga sadoqat, mardlik ulug‘lansa, “Nasihatlar”, “Oq kema”, “Yovvoyi yo‘rg‘a” kabi asarlarda chin insoniy fazilat va ona tabiatga bo‘lgan muhabbatning badiiy chizgilari o‘z ifodasini topadi. Yuqori sinflarda bu tuyg‘ularning nisbatan shakllanib ulgurgani inobatga olingani holda murakkab psixologik hamda ruhiy kechinmalar aks etgan badiiy yaratq namunalari bolalarga taqdim etiladi.

Mazkur darsliklarda yuqori sinfning dastlabki bosqichida jahon adabiyotiga alohida e‘tibor qaratilgan. Yuqori sinflarda esa, xususan, 10-11-sinflarda faqatgina ikkita chet el adabiyotidan namuna berilishi, shuningdek, nasr bilangina cheklanib qolganligini kuzatish mumkin.

Janrlararo rangbaranglikning aks etishi jihatiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, nisbatan nasriy asarlarga keng urg‘u berilganini kuzatish mumkin. Epik tur adabiyotning katta bo‘g‘inini tashkil etishi nuqtayi nazaridan buni qabul qilish mumkin, ammo dramatik turga oid faqat bittagina “Hamlet”ning berilishi mazkur adabiy turga oid bilimlarning dastlabki propedevtik bosqichda qolishigagina zamin yaratadi xolos.

Shuningdek, bolalar yuqori sinfning dastlabki bosqichida, avvalo, milliy adabiyot zaxiralari bilan o‘z bilimlarini boyitib, keng individual dunyoqarashga ega bo‘lib olgachgina, 9-11-sinflarda jahon adabiyoti bilan atroflicha tanishib, o‘z qarashlarini turli rakurslardan turib baholash va uni amaliyotda oqilona qo‘llash sirlarini o‘rganishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ammo mazkur 5-7-sinflar darsliklarida jahon adabiyotiga kengroq, 9-11-sinflarda kichik doirada chet el adabiyotiga urg‘u berish yetakchilik qiladi.

2022-2024-yillarda yaratilga yangi 5,6,7,10-sinf adabiyot darsliklari boshqalaridan mutlaqo yangi ijodkorlar va badiiy yaratiqqlarga to‘la boyligi bilan izohlanadi. Xususan, “Maugli”, “Xameleon”, “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, “Baxtli shahzoda”, “Bir kunlik yoz”, “Mallalar uyushmasi”, “Rahmat, sizga xonim!” kabi asarlar o‘rta ta’limda avval hech ham o‘qitilmagan.

Bundan tashqari yangi darsliklarni yaratishda turlicha badiiy maqsad konsepsiyasini qo‘llanganligi darsliklarning yana bir yutug‘i. Xususan, 5-sinf adabiyotida badiiy qiymat (badiiy xususiyat), tarbiyaviy ahamiyati yetakchilik qilsa, 6-7-sinflarda ruknlarga mos asar tanlash, 10-sinf adabiyot darsliklarida esa o‘rganilayotgan davr uchun muhim (xarakterli) bo‘lishiga e’tibor qilish yetakchilik qiladi.

Xulosa. Adabiyot darsliklarida beriladigan savol-topshiriqlarni badiiy matn tarkibidan ajratgan holda taqdim etish, topshiriqlarni konseptual tamoyil asosida shakllantirish, tuziladigan savollar matnni aynan takrorlanmasligini ta’minlaydigan didaktik yo‘sinda tuzilishi maqsadga muvofiqdir. O‘quv darsliklarida jahon adabiyotiga oid namunalarning berilishida janriy xilma-xillik tamoyilining ustuvor bo‘lishini ta’minlovchi yangi adabiy janrlar va yo‘nalishlarning kiritilishiga diqqat qaratish lozim. Darsliklarda berilayotgan asarlarning sinflar ketma-ketligida o‘zaro bir-birini takrorlamasligini ta’minlash hamda kichik sinflarda chet el adabiyotiga oid asarlarning berilishi 2-3tadan oshmasligi, yuqori sinflarda turli adabiy janrlardan bir nechta namunalarning xilma-xillik tarzida kiritilishiga e’tibor qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. 1992. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Filologiya va tillarni o‘qitish mutaxassisligi bo‘yicha bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent.
2. Yo‘ldosh Q. Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. 2016. Toshkent.
3. D. Quronov. Badiiy asar tahlili. Tanqid va tahlil. <https://www.facebook.com/posts/badiiy-asar-tahlili-d-quronov-tahlil-va-talqin-tushunchalari/>
4. Normatova Sh. 2018. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishda o‘yin texnologiyalari // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent. № 6.
5. Parpiyeva M. 2015. Kichkina shahzoda – ezgulik timsoli // Til va adabiyot ta’limi. Toshkent. № 12.